

## QADIMIY VA QADRLI SAYXUN

*Aziz Xo'ja Nur*

*Sirdaryo iftixori "Oltin fond" a'zosi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabasi, Sayxunobod tumani Madaniyat va turizm bo'limining Yoshlar va madaniy-ma'rifiy masalalar bo'yicha mutaxassisi, Sayxunobod tumanida Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi, "Adabiyot avlodlari" va "She'riyat shaydolari" o'quv to'garagining rahbari*

Sayxunim, sayxonim, jonim jahonim,  
Bag'ringga singigan ilk tomchi qonim.  
Yetmish bor egilib xoking o'payin,  
Baxtinga belanchak ulug' makonim.

Qadim Yaksartimsan, yakkam-yagonam,  
Sendan bo'lak go'sha menga begona.  
Bir qatra suvingcha totimas zam-zam,  
Mehrini emdirib o'stirgan ona.

Sayr etsam yorqin ko'chalarimga,  
Faxrning qo'lidan gulob ichaman.  
Toshaman o'yfurush kechalarimga,  
Yurakka g'ururdan libos bichaman.

Oh, ilhomga asir bo'lib qolaman,  
Dalalarimga ko'z tashlagan onim.  
So'nggi damlarda ham tilga olaman,  
Sayxunim, sayxonim, jonim jahonim.

Ikki daryo - Sayxun va Jayxun daryolari o'rtasidagi barokatli tuproqni o'z ichiga olgan O'zbekistonni bizga vatan bo'lishini taqdir etgan Allohga hamd bo'lsin!

Sayxun - O'rta Osiyoning bag'ridan oqib o'tuvchi Sirdaryoning qadimgi nomi, qadimiy tarixidir. Bu nomning, bu joyning qadimiyligi manbalarda qayd etilishicha Nuh alayhissalom davrida ham bor bo'lib, qo'llanilgan ekan. "Sayxun" nomining balki bundanda qadimiy tarixi bordir, bunisi Yaratganga ayon.

"Payg'ambarlar tarixi, Islomiyat tarixi" kitobida yozilishicha: "Nuh alayhissalom yer yuzini uch o'g'li o'rtasida taqsimladi. O'g'li Somga yer yuzining o'rta va yuqori qismini bergan ediki, bu Baytul Maqdis, Nil, Firof, Dijla, Sayxun,

Jayxun va Faysun daryolari, bu daryolarning suvi yetgan joylarni o'z ichiga oladi..."deya keltiriladi.

Sayxun - bu nom yaqin tarixga nazar solsangiz ham Jaloliddin Manguberdi, Amir Temir, Temiriylar davrida, mo'g'ullar, Chingizxon istilosi davrigacha Sirdaryoning qadimiy nomlaridan biri bo'lib keng qo'llanilgan. Bunga misol Jaloliddinning Sayxun daryosiga sakrashi, Chingizxonning Movorunnahrga hujumi davrida qo'shinini to'rt qismga bo'lib, Juji bosh bo'lgan qo'shin qismini Sayxun bo'ylab pastga ya'ni Sirdaryoning o'rta asr shahri, Xorazmshohlar davlatining istehkomi hisoblangan - Jandga, yana bir qismini Binokatga yuboradi. Bu qo'shinlarga Sayxun bo'ylab joylashgan shaharlarni qo'lga kiritishni buyuradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" asarida Umar Shayx Mirzo poytaxt qilgan Axsini quyidagicha tasvirlaydi: "...Sayxun suyining shimoli tarafidag'i qasabalar: bir Axsidur." deya izoh bergan.

Guvohi bo'lganingizdek tarixiy yozma manbalarda "Sayxun" nomi bitilganiga bir muncha misollar keltirdik. Bu misollar dengizdan tomchi, albatta !.

Buning sababi shundaki, yer yuzi yaratilgandan buyon bor bo'lgan bu tuproqlar ne-ne tarixiy voqealarning guvohi, qanchadan-qancha Odam avlodining qadamjosiga va necha ming insonlarning oxirgi manziliga aylangan.

Bugungi kunda "Sayxun" - deya Sirdaryoning qadimiy nomi berilgan, Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumani sayxunobodliklar uchun Vatan ichra Vatan hisoblanadi.

Bir paytlar "Mirzacho'l" deya atalgan sahro qumlikalaridan iborat bo'lgan, Yaratganing mehri va gulko'ngilli xalqining mehnatidan bugun gulistonga aylangan Sirdaryo viloyati 1963- yilda tashkil topdi, oradan 7 yil o'tib, 1970- yilda Sayxunobod tumani ham tashkil etildi. Cho'l, qamishzor va ko'llardan iborat manzillar Sayxunobodning yaqin tarixi edi...

Endi Sayxunobodning kundan-kun chiroy ochib borayotgan yuzi, ertasidan umidvor, yuksalib borayotgan buguni bor. Tarixsiz kelajak bo'lmaganidek, har kelajakning tarixi bo'ladi. Xalqimiz orasida navqiron Sayxunobodning ham bir necha asrlar, ming yillar avvalgi o'tmishidan sado beruvchi tarixi haqida ma'lumotlar xazinasi bor. Bu xazinani faqatgina ilmiy- arxeologik izlanishlar, tadqiqotlar kaliti orqali ochish mumkin.

Mahalliy xalq vakillarining aytishicha Sayxunobod tumanining Sirdaryo tumaniga chegaradosh hududida, Sirdaryo daryosiga yaqin qismida "Sintob" mahallasida keng va baland tepalik bor bo'lib, XIII- XIV asrlarda bu tepalik ustida karvonlar to'xtab, xordiq olishlari uchun karvonsaroy, kichik shaharcha barpo etilgan. Bu tepalik va karvonsaroyini Amir Temur lashkarlariga bunyod ettirgani aytiladi. Shu kabi tepaliklar Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida "Qanqa" tepaligi va Ohangaron tumanlarida ham mavjud bo'lib, ularni bir-biriga bog'lash uchun o'sha

davrda yer osti yo‘li qazilgan. Bu tepaliklar ma‘lum masofalarda yana bunyod etilgan va bu tepaliklardan jangovar shaylik va sergaklik, ogohlantirish yo‘lida foydalanilgan. Dushman xavfidan xabardor qilish yoki muhim xabarlarni yetkazish maqsadida tepalik ustida mash‘ala yoqib belgi berishganligi ham taxmin qilinadi.

1985 - 1987 - yillarda arxeolog olimlar tomonidan qazilma ishlari olib borilganida haqiqatdan ham ushbu tepalikdan bir necha asrlarga tegishli bo‘lgan tarixiy ro‘zg‘or uchun ishlatiladigan har xil namunadagi katta-kichik ko‘zalar, sapol idishlar, simob va zaxar solinadigan sapol idishchalar topilgan.

Bu topilmalar Sirdaryo viloyati muzeyida hozirgi kungacha saqlanib kelinmoqda. Shu bilan bir qazilma ishlarida shu aniq bo‘lganki o‘sha davr odamlarining suyaklari hozirgi davrdagi odamlarga nisbatan yirik bo‘lganligi panjalarining izi, quyilgan g‘ishtlardan aniq bo‘lgan. Bu tepalik Sirdaryo viloyatining nomoddiy-madaniy meroslar ro‘yxatiga kiritilgan.

Bugungi kunda bu tepalik umri tugab, o‘zlari ham tarixga aylangan, tuproqdan ekanligini anglab tuproqqa qaytayotgan insonlar uchun “Nurota” qabristoni bo‘lib xizmat qilyapti. Bu tarixiy tepalikdan qabriston sifatida 1900 - yillarda qozoq millatiga mansub xalq foydalanishni boshlagan.

Sayxunobod tumanidagi yana bir “Guliston” mahallasi hududida joylashgan hozirgi “Nushiravon” qabristoniga aloqador tarixiy voqealar ya‘ni “Kallaxona” tarixi uzoq yillarga borib taqaladi.

Sirdaryoning o‘rta oqimining chap qirg‘oq bo‘ylab ya‘ni hozirgi Bekaobod shahri hududidan Sirdaryo tumanining “Gigant” xo‘jaligigacha bo‘lgan turkiy xalqlarning O‘g‘uz urug‘i yashagan.

O‘g‘uz qabila aholisi asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan. Aniq ma‘lumot uchun Bekobod shahridan Sirdaryo tumanigacha bo‘lgan hududda O‘g‘uzlar kanal qazib dehqonchilik bilan shug‘ullangan. 1219 yilda Chingizxon boshliq mog‘il – tatar bosqinchilari Xorazmshoh davlatiga bostirib kirishadi. Chingizxon o‘z qo‘shinlarini uch tamonga yo‘nalishga qaratgan bo‘lib, bir tamoni Xorazm davlatining poytaxti Urganchga, ikkinchi yo‘nalishi Samarqand, Buxoro tomonga, uchunchi yo‘nalish O‘ratepa va Farg‘ona vodiysi tomonga qaratilgan.

Uchunchi yo‘nalish Sirdaryo daryosining hozirgi “Rabot” kechuvi bo‘lgan. Bu yerlarda turkiy qabilalarning o‘g‘uz urug‘ining qattiq qarshiligiga uchragan. O‘g‘uzlar musulmon dinida bo‘lgani uchun ularni nomoz vaqtida yengish mumkinligini rejalashtirgan mo‘g‘ullar hozirgi “Nushiravon” avvallari xalq tilida “Kallaxona” deb nomlangan qabriston, o‘sha davrda o‘g‘uzlarning qo‘nalg‘asi bo‘lgan joyda o‘g‘uzlarga qarshi mo‘g‘ullar vahshiylarcha juma kuni “Juma” namozi vaqtida 1219 – yilda hujum qilib musulmon bo‘lgan o‘g‘uzlarning nomoz o‘qiyotgan



vaqtida kallarini ham olishgan. Bu ayanchli voqeadan so‘ng o‘g‘uzlarning qo‘nalg‘asi “Kallaxona” ga aylangan.

Ba ‘zi ma’lumotlarda ushbu voqea “Kallatepa” deb nomlangan joyda mog‘ul bosqinchilari hujum qilib nomoz o‘qiyayotganlarni qirib tashlagan va o‘sha paytdan boshlab “Kallaxona” qabiristoni deb nomlangan.” –deyiladi.

O‘g‘uz qabilalardan qolgan qismlari mo‘g‘ullar bilan hurriyat uchun jang qilib, Kichik Osiyo hududida yashayotgan “Saljuqiylar” turkiylar sulolasini urug‘doshlar deb o‘sha tomonga ko‘chib borishgan. Bunga misol tariqasi o‘g‘uzlarning “Ertug‘rul ” va “Hukmdor Usmon” haqidagi tarixiy voqea manbalarini keltirish mumkin. Bu tarixiy voqealar asosida Turkiya kino ijodkorlari “Ertug‘rul ” va “Hukmdor Usmon” nomli ko‘p qisimli tarixiy filmni tasvirga olganlar .

Sayxunobod tumani “Guliston” mahallasidagi “Nushiravon” qabiristoni ham Sirdaryo viloyatining nomoddiy-madaniy meroslar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Tarixida hali yozib tugatilmagan sahifalari mavjud bo‘lgan xalq baxtlidir”, degan edi shotlandiyalik tarixchi va faylasuf Tomas Karleyl.

Sayxunobod tumanining manashunday hali sirlari ochilmagan xazinalari bor. Vaqti kelib, arxeolog olimlar tomonidan qadimiy va qadrli Sayxun xazinalarini ochuvchi ilmiy kalitlar topiladi, Sayxunobod tarixida hali yozib tugatilmagan yangi sahifalar yoziladi. Bu sahifalar “Sayxunobodning tarixiy xazinalari” degan kitobga aylanishiga istakdoshmiz !